O‘ZBEK HAYKALTAROSHLIK ARTIONIMLARINING LISONIY TABIATI, SEMANTIK STRUKTURASI VA ONOMASTIK MAQOMI

Safiyazova Nazokat Yangibayevna
Ma‘mun universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti
O‘zbek va sharq tillari kafedrasi o'qituvchisi
nazokatsafiyazova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda o‘zbek tilshunosligining atoqli otlar tizimi bo‘lmish onomastika fani doirasida nisbatan kam o‘rganilgan sohasi - artionimiya yo‘nalishi, xususan, milliy haykaltaroshlik asarlari nomlarining lisoniy tabiati, struktur-semantik parametrlari hamda ularning umumonomastik tizimdagi o‘rni atroflicha tadqiq etiladi. Tadqiqot manbasi sifatida O‘zbekiston zamonaviy san’at muzeyi (CAMUZ) katalogi hamda mamlakatimizning yetakchi haykaltaroshlari asarlari asosida shakllantirilgan empirik materiallar jalb etildi. Ishda tavsifiy, komponent tahlil, derivatsion hamda lingvomadaniy talqin metodlari vositasida haykaltaroshlik artionimlarining nominativ xususiyatlari, ularning antroponimik, ijtimoiy-kasbiy, etnomadaniy va ramziy-falsafiy qatlamlari tizimli tahlil qilinadi. Tahlillar natijasida haykaltaroshlik artionimlari shunchaki san’at obyektini ro‘yxatga oluvchi yorliq bo‘lmay, balki moddiy-plastik shakl bilan milliy-estetik tafakkurni bog‘lovchi, chuqur ramziy va kognitiv semantikaga ega bo‘lgan mustaqil onomastik birlik ekanligi ilmiy jihatdan asoslanadi.

Kalit so‘zlar: artionim, onomastika, haykaltaroshlik, lisoniy belgi, nominatsiya nazariyasi, semantik derivatsiya, lingvomadaniy konsept, estetik modallik, struktur model.

KIRISH. Zamonaviy o‘zbek tilshunosligi taraqqiyoti lisoniy birliklarni faqatgina ichki morfologik yoki sintaktik tizim doirasida emas, balki ularning xalq ma’naviy-estetik tafakkuri, milliy madaniyati va tarixiy xotirasi bilan uzviy dialektik birlikda tahlil qilishni talab etmoqda [1, 24-b.]. Atoqli otlar tizimini o‘rganuvchi onomastika fani doirasida inson ismlari (antroponimlar), joy nomlari (toponimlar) yoki osmon jismlari nomlari (kosmonimlar) yetarlicha fundamental o‘rganilgan bo‘lsa-da, insoniyat badiiy intellektining mahsuli bo‘lgan san’at asarlari nomlari uzoq yillar davomida izchil nazariy e’tibordan chetda qolib keldi [2, 45-b.].

San’at asarlariga qo‘yiladigan nomlar - artionimlar o‘zining ikkiyoqlama tabiati bilan alohida ajralib turadi: ular bir tomondan, muayyan estetik asarni boshqa turdosh madaniy obyektlardan ajratib ko‘rsatuvchi rasmiy nominativ-identifikatsion belgi hisoblansa, ikkinchi tomondan, asarning g‘oyaviy markazini jamlovchi, uning matn osti (konnotativ) qatlamlarini tomoshabinga yetkazuvchi o‘ziga xos estetik-lingvistik butunlikdir [3, 112-b.]. Haykaltaroshlik san’atida asar uch o‘lchamli fazoviy muhitda moddiy materiallar (bronza, marmar, granit, shamot, ganch, yog‘och) vositasida yaratiladi. Haykaltarosh tomonidan tanlangan jismoniy shakl va plastik kompozitsiya qanchalik ta’sirchan bo‘lmasin, uning muallif ongida shakllangan falsafiy mundarijasi aynan lisoniy ifoda - artionim orqali qat’iylashadi va ijtimoiy muloqotga kirishadi [4, 67-b.]. Shu bois o‘zbek haykaltaroshlik asarlari nomlarining lisoniy xususiyatlarini, ularning semantik-struktural qoliplarini hamda umumonomastik tizimdagi o‘rnini monografik tarzda o‘rganish ushbu ilmiy tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

ASOSIY QISM: HAYKALTAROSHLIK ARTIONIMLARINING LISONIY VA STRUKTUR-SEMANTIK TAHLILI. O‘zbekiston zamonaviy haykaltaroshlik maktabi namoyandalarining (Damir Ro‘zibayev, Sodiq Rahmonov, Ilhom Jabborov, Ulash O‘roqov, Azamat Xatamov, Shavkat Usmanov kabilar) asarlari kataloglari asosida to‘plangan faktik materiallar tahlili shuni ko‘rsatadiki, haykaltaroshlik artionimlari o‘zining semantik tuzilishi va nominatsiya usuliga ko‘ra rang-barang lisoniy tabiatga ega [4, 72-b.]. Antroponimik asosli va shaxs xarakteristikasiga yo‘naltirilgan artionimlar. Ushbu guruhdagi nomlar bevosita tarixiy shaxslar, mutafakkirlar, xalq qahramonlari yoki afsonaviy personajlarning nomlari vositasida shakllanadi. Biroq haykaltaroshlikda oddiygina antroponimni keltirish bilan cheklanmasdan,

unga falsafiy-umumlashtiruvchi sifatlar yoki janriy aniqlovchilar biriktiriladi: “Mutafakkir” (Abu Rayhon Beruniy) - Damir Ro‘zibayev, 1979-yil [4, 75-b.]. Ushbu artionimda shaxsning o‘z ismi ikkinchi darajali aniqlashtiruvchi bo‘lib qolib, asosiy nominativ yuk arabcha “fikr” o‘zagidan hosil bo‘lgan «mutafakkir» leksemasi zimmasiga tushadi. Bu esa buyuk allomaning individual xususiyatidan ko‘ra uning butun bashariyatga daxldor aql-zakovatini, intellektual salohiyatini umumlashtiruvchi sifat-ot konversiyasidir. “Malika To‘maris portreti” - Sodiq Rahmonov, 1998-yil [4, 80-b.]. Mazkur artionim ikki komponentli bo‘lib, “malika” ijtimoiy maqom leksemasi hamda “To‘maris” tarixiy antroponimidan tashkil topgan. O‘zbek lingvomadaniyatida To‘maris shunchaki tarixiy hukmdor emas, balki vatanparvarlik, or-nomus, yengilmas iroda va ona matonatining etnomadaniy arxetipidir. Ushbu nomning yog‘och materialida gavdalantirilgan plastik obrazga berilishi tarixiy xotiraning abadiyligiga lisoniy ishoradir. “Mashrab portreti” (Shavkat Usmanov) hamda “Farhod” (Rauf Nemirovskiy, 1983-yil) [4, 82-b.]. Bu o‘rinda adabiy-tarixiy antroponimlar monoleksemali holda qo‘llanilib, qo‘shimcha izohlarsiz ham o‘zbek madaniy tafakkurida isyonkor ruhiyat, ilohiy ishq, mardlik va mehnatsevarlik konseptlarini uyg‘otadi.

Ijtimoiy maqom, an’anaviy kasb-hunar va etnografik faoliyat nomlari. Jamiyat a’zolarining ijtimoiy o‘rni, ularning an’anaviy turmush tarzi va milliy kasb-korini ifodalovchi leksemalar haykaltaroshlik artionimlarining salmoqli qismini tashkil qiladi: “Chavandoz” (Ulash O‘roqov) [4, 88-b.]. Fors-tojik tilidan o‘zlashgan harakat va shaxs oti yasovchi “-doz” affiksi vositasida shakllangan ushbu leksema o‘zbek xalqining ko‘p asrlik uloq-ko‘pkari madaniyati bilan uzviy bog‘liqdir. Lingvomadaniy nuqtayi nazardan “chavandoz” leksemasi shunchaki ot choptiruvchi shaxsni emas, balki mardlik, shijoat, chaqqonlik, yuksak g‘urur va jismoniy qudrat egasini ifodalovchi ijobiy konnotatsiyali birlikdir. “Ovchi” (D. Tureniyazov, 1972-yil) hamda “Ishchi portreti” (A. Boymatov, 1969-yil) [4, 91-b.]. O‘zbek tilining tub affikslaridan bo‘lgan «-chi» qo‘shimchasi vositasida yasalgan bu nomlar insonning tabiat bilan kurashi yoki sotsial mehnat jarayonidagi faoliyatini aniq lisoniy belgiga aylantiradi. “Xonanda” (Damir Ro‘zibayev, 1982-yil) [4, 95-b.]. Mazkur artionim milliy maqom san’ati, ichki ruhiy tug‘yon va kuy-navo jozibasini moddiylashtirgan haykaltaroshlik obrazining lisoniy muhridir.

Etnomadaniy qadriyatlar va oilaviy rishtalarni ifodalovchi artionimlar. O‘zbek mentalitetining tayanchi bo‘lgan oila muqaddasligi, mehr-oqibat va avlodlararo bog‘liqlik konseptlari haykaltaroshlik nomlarida alohida lisoniy qatlam hosil qiladi: “Ona bola bilan” (Azamat Xatamov, 1987-yil) hamda “Buvi va nevara” (Damir Ro‘zibayev, 1975-yil) [4, 98-b.]. Mazkur artionimlarda ko‘makchili (“bilan”) hamda teng bog‘lovchili (“va”) sintaktik konstruksiyalar vositasida avlodlar vorisiyligi, cheksiz ona mehri va an’anaviy oilaviy tarbiya lisoniy jihatdan mustahkamlangan. “Kelin” (Sodiq Rahmonov, 1993-yil) va “Kelinchak” (J. Quttimuradov, 1968-yil) [4, 101-b.]. Ushbu ikki o‘zakdosh artionimning qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, “Kelinchak” so‘zidagi “-chak” kichraytish-erkalash affiksi nomga nafosat, ibo, hayo va samimiyat kabi milliy-madaniy ma’no nozikliklarini qo‘shadi. “To‘y” (Damir Ro‘zibayev, 1977-yil) [4, 104-b.]. Monoleksemali ushbu nom xalqimizning eng yirik shodiyona marosimini bitta turg‘un so‘z vositasida umumlashtiradi.

Abstrakt-falsafiy, psixologik va allegorik artionimlar. Haykaltaroshlikda inson ruhiyati, mavhum tuyg‘ular va falsafiy mulohazalarni aks ettiruvchi nomlar chuqur metaforik tabiatga ega: “Mahzunlik” (Sodiq Rahmonov, 1995-yil) [4, 108-b.]. Mavhum ot yasovchi “-lik” qo‘shimchasi orqali shakllangan mazkur psixologik holat leksemasi yog‘ochning tabiiy jilolanishida aks etgan g‘amginlik, sukut va ichki kechinmani lisoniy ifodalaydi. “Musiqa” (Damir Ro‘zibayev, 1988-yil) [4, 110-b.]. Tovush san’atini ifodalovchi abstrakt leksemaning moddiy bronza shakliga berilishi orqali kognitiv metafora yuzaga keladi. “Qafasdagi maymunlar” (Shavkat Usmanov, 1995-yil) [4, 114-b.]. O‘rin kelishigi vositasida shakllangan ushbu murakkab artionim jamiyatdagi ma’naviy erksizlik va cheklanishlarning ramziy-allegorik talqinini beradi. “Xum” (Elmurod Sapayev) [4, 116-b.]. O‘zbek moddiy madaniyatiga xos

bo‘lgan buyum nomi haykalga berilganda arxetipik ramzga aylanib, to‘kinlik, qadimiy sirlar va milliy ildizlar konseptini ifodalaydi.

HAYKALTAROSHLIK ARTIONIMLARINING STRUKTURAVIY MODELLARI. Morfologik va sintaktik jihatdan o‘zbek haykaltaroshlik artionimlari quyidagi asosiy modellarga bo‘linadi: Bir komponentli (monoleksemali) artionimlar: “Chavandoz”, “Farhod”, “Xum”, “To‘y”, “Musiqa”, “Mahzunlik”, “Kelin”. Bu guruhdagi nomlar siqiq, lakonik bo‘lib, tomoshabinda aniq bir estetik tasavvurni shakllantiradi. Haykaltaroshlikning mahobatlilik xususiyati ko‘pincha aynan bitta so‘zdan iborat nomlarda to‘liq ochiladi. Ikki komponentli birikmali artionimlar: “Sayramlik qiz”, “Ishchi portreti”, “Malika To‘maris”, “Mashrab portreti”. Mazkur modelda birinchi leksema aniqlovchi xarakterga ega bo‘lib, ikkinchi a’zoning semantik ko‘lamini toraytiradi va aniq badiiy chegara belgilaydi. Sintaktik jihatdan murakkab (uch va undan ortiq komponentli) artionimlar: “Ona bola bilan”, “Buvi va nevara”, “Qafasdagi maymunlar”. Bu nomlar syujetli kompozitsiyani va qahramonlar o‘rtasidagi dinamik munosabatlarni ifodalashga xizmat qiladi.

XULOSA. O‘zbek haykaltaroshlik san’ati artionimlarining lisoniy va lingvomadaniy tahlili quyidagi ilmiy xulosalarni beradi: Haykaltaroshlik artionimlari o‘zbek onomastik tizimining o‘ziga xos tarmog‘i bo‘lib, ular moddiy-fazoviy asar bilan inson lisoniy tafakkuri o‘rtasidagi bog‘lovchi semantik omildir. Nomlarning hosil bo‘lishida milliy-tarixiy antroponimlar, ijtimoiy kasb-hunar leksikasi, oilaviy-etnografik tushunchalar hamda ruhiy holatni bildiruvchi mavhum otlar asosiy manba hisoblanadi. Artionimlar tarkibida “-chi”, “-lik”, “-chak”, “-doz” kabi morfologik yasovchilar faol ishtirok etib, asarning g‘oyaviy-estetik ta’sirchanligini oshiradi. Ushbu nomlar o‘zbek xalqining milliy o‘zligini, tarixiy qahramonliklarini, yuksak axloqiy ideallarini va falsafiy dunyoqarashini o‘zida saqlovchi turg‘un lingvomadaniy kodlardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Yo‘ldoshev B. O‘zbek onomastikasi asoslari. - Samarqand: SamDU nashri, 2018. - 186 b.
2. Superanskaya A.V. Obshchaya teoriya imeni sobstvennogo. - Moskva: Nauka, 1973. - 366 s.
3. Podolskaya N.V. Slovar russkoy onomasticheskoy terminologii. - Moskva: Nauka, 1988. - 192 s.
4. O‘zbekiston zamonaviy san’at muzeyi (CAMUZ) katalogi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2018. - 140 b.
5. Begmatov E. O‘zbek tili antroponimikasi. - Toshkent: Fan, 2013. - 264 b.
6. Maslova V.A. Lingvokulturologiya: Uchebnoye posobiye. - Moskva: Akademiya, 2007. - 208 s.